



KOGNITIV TUSHUNCHASI VA UNING RIVOJLANISH BOSQICHLARI

N.O.Saidova

FarDU, maktabgacha ta'lim kafedrası v.b. dotsenti, p.f.f.d.(PhD)

Sh.A.G'ulomova

FarDU, magistrant

Annotatsiya: *Ushbu maqolada kognitiv tushuncha mazmuni, bilish jarayonlarining shakllanishi hamda maktabgacha yoshdan boshlab o'smirlikkacha bo'lgan davrda kognitiv rivojlanishning asosiy bosqichlari haqida fikr yuritilgan. Shuningdek, idrok, xotira, tafakkur, diqqat va tasavvur kabi jarayonlarning yoshga qarab o'zgarishi psixologik-pedagogik nuqtai nazardan tahlil qilingan.*


Kalit so'zlar:*kognitiv jarayonlar, bilish faoliyati, idrok, xotira, tafakkur, diqqat, sensor-motor bosqich, preoperatsion bosqich, operatsion tafakkur, formal mantiq.*

Kognitiv (bilish) tushunchasi insonning atrof-muhitni idrok etish, analiz qilish, xotirada saqlash va unga mos ravishda xulq-atvorni shakllantirish qobiliyatini ifodalaydi. Kognitiv jarayonlar, avvalo, diqqat, xotira, tasavvur, idrok, tafakkur kabi psixik jarayonlarning rivoji bilan bog'liq bo'lib, insonning butun psixologik taraqqiyotida muhim o'rin tutadi. Ayniqsa, bolalik davrida kognitiv rivojlanish sezilarli, nihoyatda jo'shqin kechadi va qo'yilgan pedagogik shart-sharoitlarga sezilarli darajada bog'liq bo'ladi.

Kognitiv rivojlanishning psixologik o'ziga xosligi shundaki, u bosqichma-bosqich, izchil, bir maromda kechadigan jarayondir. Shveysariyalik psixolog J. Piaje kognitiv rivojlanishni insonning ma'lum yosh davrlariga mos ravishda to'rtta asosiy bosqichga ajratadi. Har bir bosqich o'ziga xos tafakkur shakllari, mantiqiy operatsiyalar va bilish usullariga ega bo'lib, ulardan o'tmasdan keyingisiga o'tish mumkin emas.

Sensor-motor bosqichi (0–2 yosh): Mazkur bosqichda bola bilishni bevosita sezgi organlari (ko'rish, eshitish, hid bilish, tam bilish va teri taktil) va harakatlar orqali amalga oshiradi. Go'dak atrofidagi predmetlar va o'ziga kerakli bo'lgan narsa buyumlarni qo'lga olishi, teginishi, tatib ko'rishi, ag'darishi orqali ular haqida axborot to'playdi va o'z yosh doirasiga muvofiq analiz va sintez qila boshlaydi. Tevarak-atrof, yaqin insonlar haqida dastlabki tasavvur va tushunchalar paydo bo'la boshlaydi. Bolaning bu davrdagi eng muhim yutug'i-predmetning doimiyligi tushunchasining shakllanishidir. Bola ko'zdan yo'qolgan predmet aslida hamon mavjudligini anglay boshlaydi. Senso-motor faoliyat tafakkur va idrokning zaminini tayyorlaydi, keyingi bosqichlardagi bilish jarayonlarining poydevorini yaratadi.

Preoperatsion bosqich (2–7 yosh): Bu davrda obrazli tafakkur, tasavvur va nutq jadal rivojlanadi. Bu davrning dastlabki bosqichlarida (2,5-3 yosh atrofida) bola tevarak-atrof, ijtimoiy munosabatlar, yaqinlari haqida o'ziga yetarlicha manba to'plab bo'lib, savollar



muhokamalar, qisqacha analiz-sintez jarayonlari va xulosalar bosqichini boshdan kechirayotgan bo‘ladi. Bola predmetlar o‘rtasidagi bog‘lanishlarni sezadi, lekin mantiqiy xulosalar hali shakllanmagan bo‘ladi. Keyingi bosqichda (4-5 yosh doirasida) egotsentrik tafakkur kuchli bo‘lib, bola voqealarga faqat o‘z nuqtai nazaridan baho beradi. Matematik va fazoviy tasavvurlar endi shakllanadi: bola kattaliklar, shakllar, tasniflash, rang ajratish kabi vazifalarni bajarishga qodir bo‘ladi. SHuningdek odob-ahloq, ma‘daniy xulq-atvor, ijtimoiylashuv, jamoada o‘zini tuta olish ko‘nikmalari shakllanib boradi, bosh miyaning turli qismlari o‘rtasidagi nerv markazlari o‘zaro bog‘liqlik aloqalarini o‘rnatadi. Mantiqiylikning dastlabki namunalari paydo bo‘la boshlaydi. Tasavvur jarayoni faol bo‘lib, bola o‘yinlarda real hayotni o‘zicha modellashtiradi. 5-6 yoshga kelib bolalar har qanday tadbir va mashg‘ulotlarga bajonidil qatnashadilar.

Konkrekt operatsion bosqich (7–11 yosh): Ushbu davrda bolada mantiqiy fikrlashning dastlabki shakllari shakllanadi. Bola predmetlarni turli belgilariga ko‘ra taqqoslash, guruhlariga ajratish, sabab–oqibat bog‘lanishlarini tushunish kabi amallarni bajaradi. Konservatsiya, teskari fikrlash, umumlashtirish va ketma-ketlikni anglash ko‘nikmalari paydo bo‘ladi. Diqqat nisbatan barqaror, xotira esa mazmunli va ongli tus oladi. Bu bosqichda fikrlash amaliy vaziyatlarga tayanadi, ya‘ni bola faqat ko‘rib, ushlab bo‘ladigan narsalar bilan oson ishlaydi.

Formal operatsion bosqich (11 yosh va undan yuqori): Mazkur bosqichda abstrakt, nazariy va deduktiv fikrlash rivojlanadi. O‘smir gipotezalar ishlab chiqishi, ularni solishtirishi, mantiqiy xulosalar chiqarishi mumkin. Muammolarni nazariy jihatdan hal qilish, bir nechta yechim variantlarini ko‘rib chiqish qobiliyati shakllanadi. O‘quvchi murakkab matematik tushunchalarni anglay oladi, vaqt va fazo bilan bog‘liq mantiqiy modellardan foydalanishga qodir bo‘ladi. Tafakkur ijodiy tus oladi, dunyoqarash shakllanadi.

Umuman olganda, kognitiv rivojlanish insonning butun hayoti davomida davom etsa-da, aynan bolalik davri bu jarayonning eng faollik bilan namoyon bo‘ladigan bosqichidir. Ta‘lim jarayonida tarbiyachi yoki o‘qituvchi bolaning yoshiga xos kognitiv imkoniyatlarni inobatga olishi, rivojlanishga mos metodlardan foydalanishi muhimdir. Kognitiv jarayonlarni to‘g‘ri rivojlantirish bolaning keyingi ta‘lim bosqichlarida muvaffaqiyatga erishishiga asos yaratadi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, kognitiv rivojlanish har bir yosh bosqichida turli xil dinamik va ko‘rsatgichga egadir, chunki, dastlabki 2-3- yil bola hayotining dastlabki va ilk axborotlar yig‘ish va to‘plash davri bo‘lsa undan keyingi bosqichlar ushbu ba‘zadan foydalanish va qo‘llay olish jarayonidir. Bu yosh bosqichidagi bolalarning ovqatlanish ratsioni, sog‘lom turmush tarzi, o‘qish va ta‘limining rejimda bo‘lishi, gigienik talablarga rioya qilishi juda ham muhimdir.



Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Vygotsky, L. *Development of Higher Mental Functions*. Moscow, 2022.
2. Karimova, R. *Psixologiya asoslari*. – Toshkent: Fan, 2023.
3. Saidova, N. O. *Kognitiv rivojlanishning zamonaviy yondashuvlari*. – IMRAS, 2024.
4. G‘ofurova, M. R. *Maktabgacha ta’lim psixologiyasi*. – Farg‘ona, 2023.
5. Jo‘rayev, A. *Bilish jarayonlari va ularning rivoji*. – Toshkent: O‘qituvchi, 2021.
6. Ahmadjonova, D. M. *Kognitiv jarayonlarni rivojlantirishda pedagogik metodlar*. – 2024.